

RAQAMLI PLATFORMALAR VOSITASIDA SAYOHATLARNI REJALASHTIRISH TIZIMINING ASOSIY TAMOYILLARI

Annotasiya. Ushbu maqolada raqamli platformalar yordamida sayoxatlarni rejalashtirish tizimining asosiy tamoyillari haqida soʻz boradi. Shuningdek, sayoxatlarni rejalashtirishda mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish boʻyicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Sun'iy intellekt, YaIM, bulutli texnologiyalar, robototexnika va sensorika, kvant texnologiyalari, yagona diskont kartasi, mehmonxonalarni milliy onlayn bron qilish

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ СИСТЕМЫ ПЛАНИРОВАНИЯ ПУТЕШЕСТВИЙ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВЫЕ ПЛАТФОРМЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные принципы системы планирования путешествий с использованием цифровых платформ. Также представлены авторские подходы и предложения по решению проблем планирования путешествий и их устранения.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, облачные технологии, робототехника и сенсоры, квантовые технологии, единая дисконтная карта, национальное онлайн-бронирование отелей

BASIC PRINCIPLES OF A TRAVEL PLANNING SYSTEM THROUGH DIGITAL PLATFORMS

Abstract. This state discusses the basic principles of a trip planning system using a digital platform. The author's approaches and proposals for solving the problem of travel planning and ix solutions are also presented.

Keywords: Artificial intelligence, cloud technologies, robotics and sensors, quantum technologies, a single discount card, national online hotel booking

Kirish

Bugungi dolzarb zamonda muxim mavzulardan raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va kishilar hayotiga jadal kirib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan. O'zbekiston-2030 strategiyasida turizm sohasini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Buning asosiy maqsadi sayohatchilarga qulay va zamonaviy xizmatlar taqdim etish, turizm sektorida raqobatbardoshlikni oshirish hamda milliy va xalqaro turizmni rivojlantirishdir. Strategiyada turizm va sayohatlarni rejalashtirish uchun yagona raqamli platformalarni yaratish va ularni barcha turizm xizmatlari bilan integratsiya qilish muhimligi ta'kidlangan. Bu sayohatchilarga marshrutlarini rejalashtirish, mehmonxonalar va transport vositalarini bron qilish, hamda turizm ob'ektlari haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O'zbekistondagi olimlar raqamli platformalarning turizm va sayohatlarni rejalashtirishdagi rolini muhim deb hisoblashadi. Ular, ayniqsa, milliy turizmni rivojlantirish va sayyohlarning mamlakat bo'ylab sayohatini osonlashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni

ta'kidlaydilar. Raqamli platformalarning dastlabki rejalashtirish, bron qilish va turizm xizmatlarini muvofiqlashtirishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Mahalliy olimlarimizda Ravshanbek Nuriddinov "O'zbekistonning raqamli turizm sektori: imkoniyatlar va chaqiriqlar" nomli asarida, olim raqamli platformalarning milliy sayohatlar tizimidagi ahamiyatiga urg'u berib, ularning innovasion yondoshuvlar asosida rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Xorijiy olimlardan Maykl Porter (AQSh) "The Competitive Advantage of Nations" asarida raqamli platformalarning mamlakatlarning turizmdagi raqobatbardoshlikni oshirishda qanday ahamiyat kasb etishini tahlil qilgan. U raqamli texnologiyalar, internet va mobil ilovalar turizm sohasida katta ta'sirga ega ekanligini va bu sohada raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Sara Nil'son (Evropa) "Digital Transformation in the Tourism Industry" asarida raqamli texnologiyalar va platformalarning turizm industriyasiga qanday ta'sir qilishini muhokama qiladi. U raqamli platformalarning sayohatlarni rejalashtirish va mijozlar bilan o'zaro aloqadagi rolini tahlil qilgan va ularning zamonaviy turizm uchun ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu fikrlar raqamli platformalar orqali sayohatlarni rejalashtirish tizimini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Ulardan foydalanish orqali turizm xizmatlarini osonlashtirish, sayohatlarni muvofiqlashtirish va umumiy turizm sektoridagi samaradorlikni oshirish mumkin.

Asosiy qism.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi AQShda 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizini tashkil etadi. "Vouchercloud" portali tadqiqotchilari dunyodagi "eng aqlli" 25 davlat ro'yxatini e'lon qildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, birinchi o'rinni Yaponiya egallagan. Kunchiqar yurt tadqiqotning asosiy ko'rsatkichlari — Nobel mukofoti laureatlari soni, aholining o'rtacha IQ (aql-zakovat) darajasi, maktablardagi o'zlashtirish ko'rsatkich bo'yicha ham eng yuqori bahoga sazovor bo'ldi.[1]

Keyingi o'rinlardan Shveysariya, Xitoy, AQSh va Niderlandiya joy oldi. Xitoy aholi aql-zakovat darajasi yuqori bo'lgani uchun uchinchi o'rinni olgan bo'lsa, AQShga to'rtinchi o'rinda joylashishiga Nobel mukofoti laureatlari soni yordam berdi. Janubiy Koreya, Tayvan' va Singapur bilimli (aql-zakovatli) yoshlar soni bo'yicha yetakchi o'rinlarda, ammo faqatgina Nobel mukofoti laureatlari soni kamligi sababli reytingda yuqorida o'rinlardan joy olmadi.

"McKinsey" ekspertlarining baholashi bo'yicha, bugungi kunda jahon YaIMning qariyb 10 foizi raqamli aktivlarga to'g'ri keladi, shu bilan birga, ularni ishlab chiqish sur'ati jahon iqtisodiy o'sishining 30 foiziga teng. Raqamli aktivlarning rivojlanishi akselerator (tezlashtiruvchi) harakatiga o'xshaydi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz.

Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni, ayniqsa, korrupsiyani keskin kamaytiradi.[1]

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani yozish jarayonida induksiya va deduksiya, taqqoslash va SWOT tahlil kabi metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Shu o'rinda raqamli iqtisodiyot tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Bu o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste'mol qilish va boshqaruv jarayonlarining (insonlararo, mashinalararo, bulutlar va katta hajmdagi raqamlar (BIG DATA) orqali) raqamli texnologiyalar hamda internet yordamida ma'lumot almashinishni optimallashtirish orqali katta foyda ko'rishga qaratilgan faoliyatdir.¹

Raqamli iqtisodiyotni kompleks innovasion texnologiyalariga 1uyidagilar kiradi:

1. Katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari – BIG DATA;
2. Sun'iy intellekt –Artificial Intellect;

¹ [Рақамли иқтисодийотни ривожлантиришда рақамли технологияларнинг роли — e-journal.uz](http://e-journal.uz), 2/2022 – М.Н.Ахмедова

3. Bulutli texnologiyalar – Cloud Technologies;
4. Mobil texnologiyalar- ye-mobile;
5. Buyumlar interneti – Internet of Things;
6. Robototexnika va sensorika;
7. Raqamli elektron platformalar va ekosistemalar;
8. Kvant texnologiyalari;
9. SMART-kontraktlar;
10. 4.0 sanoat texnologiyalari
11. Virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari – Virtual Reality and Augmented Reality (VR, AR);
12. Kraud-sorsing va kraud-fonding texnologiyalari;
13. Blokcheyn texnologiyalari;
14. Kriptovalyutalar va ICO (Initial Coin Offering) texnologiyalari;
15. 3D, 4D-texnologiyalar.
16. Dron — texnologiyalari

O'zbekiston turizm sohasida ham bu borada jiddiy ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bir qator mamlakatlar fuqarolari uchun vizalarni bekor qilish, mehmonxonalar qurish va yangi yo'nalishlarni rivojlantirish bilan birgalikda mamlakatimizga kelgan sayohatchilar uchun qulaylik yaratuvchi innovasion yechimlarni joriy etishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda elektron mehmonxonaning avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqdi. Mazkur tizim ishga tushirilgach, davlat boshqaruvi organlariga hisobot taqdim etishni hujjatlashtirish bekor qilindi.[7] Yana bir loyiha doirasida "O'zbekistan Pass" – yagona diskont kartasi joriy etishdan iborat bo'lib, karta sayyohlik hududlariga tashrif buyurish, bolalar, yoshlar, keksa fuqarolar, nogironlar, ko'p bolali oilalar va davlat sektori xodimlari uchun mehmonxonalarda, kurortlarda va dam olish joylarida yashash uchun imtiyozli sharoitlar va chegirmalar taqdim etishi ko'zda tutilgan.¹

Mehmonxonalarni milliy onlayn bron qilish "MyBooking" tizimi haqida ham ta'kidlab o'tish kerak. Bu tizim orqali turistlar bir necha daqiqada xonani bron qilishlari va mehmonxonada yashash uchun pul to'lashlari mumkin. Tizim VISA va MasterCard kartalaridan, shuningdek moslashuvchan chegirmalar tizimidan foydalanadi – bu omillar naqd pulsiz to'lovlarning o'sishini rag'batlantiradi. UzCard xizmatidan foydalanish va milliy valyutada to'lovlarni qabul qilish imkoniyati ichki turizmni qo'llab quvvatlash, xizmat safarlarini tashkil etishda qulay vosita bo'lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish soha raqobatbardoshligini oshirishda, O'zbekistonning turizm salohiyati bilan potensial sayyohlarni tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[8] Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashda onlayn xizmatlari alohida o'rin tutadi. Odatda turizm sohasida quyidagi onlayn xizmatlari keng tarqalgan:

- avia, temir yo'l, avtobus va avtomobil marshrutlari bo'yicha biletlarni onlayn usulda buyurtma qilish va sotib olish;
- turizm bo'yicha onlayn maslahat berish xizmatlari;
- avtomobillarni onlayn ijaraga berish xizmati;
- sayohatlarga, mahsus turlarga va ko'rgazmalarga buyurtmalar berish va ularni sotib olish bo'yicha xizmatlar;
- biletlarning, turlarning va turli xildagi sayohatlarning kal'kulyasiyasini elektron usulda taqdim qilishning onlayn servislari;
- onlayn usulda mehmonxonalarni buyurtma qilish xizmatlari;
- shaharlar, muzeylar va ko'rgazmalarga virtual sayohatlar uyushtirish servislari va boshqalar.

[2]

Raqamli ko'nikmalar turizm sektori uchun kadrlar tayyorlash tizimida ham kasbiy mahoratning ajralmas qismiga aylanishi zarur. Raqamli iqtisodiyotda ilg'or texnologik loyihalarni

¹ Туризм секториди рақамли технологиялар. Г. П. ГУЛЯМОВА [VwGag9Lr1eCXhY474uCM4xtxiYDl286.pdf](https://www.vuzgag9lr1eCXhY474uCM4xtxiYDl286.pdf) (uza.uz)

amalgaga oshirish qator qat'iy, moslashuvchan va maxsus raqamli vakolatlariga ega mutaxassislariga talab shakllanadi. Turizm raqamli texnologiyalardan foydalanish shuningdek, soxada ayollarning ish kuchida ishtirok etishi, ayollarning tadbirkorligi va yetakchiligi uchun iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga qaraganda yaxshiroq imkoniyatlarni taqdim etadi.[9]

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va platformalar sayyohlik sektorining ishini boshidan oxirigacha tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli platformalar iste'molchilarga global foydalanish imkoniyatini taklif qiladi va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga turizm sektori xamda uning raqobatbardosh standartlarini rivojlantirishga imkon beradi. Aksariyat kam daromadli fuqarolar ushbu raqamli transformasiyadan potensial foyda ko'rishlari mumkin va turizm industriyasida raqamli texnologiyalardan foydalanmagan davlatlar xamda korxonalar global trendlardan ortda qolish xavfi ostida bo'ladi.[11]

Jahon banki guruhi yaqinda turizmdagi ushbu tendensiyaning ahamiyati va davlatlar bundan barcha manfaati uchun qanday foydalanishi haqida ikkita hisobot e'lon qildi. Hisobotga ko'ra, Turizm iqtisodiyoti, global P2P turar joylarining yillik o'sish sur'ati 2013 va 2025 yillar orasida 31 foizni tashkil etadi, bu an'anaviy nonushta qilish imkoniyati mavjud bo'lgan mexmonxonalarning o'sish sur'atlaridan olti baravar yuqoridir.[3]

Bundan tashqari, Tripadvisor bilan hamkorlikda tayyorlangan "Travellers voice" ikkinchi hisobotida raqamli platformalar yordamida qoldirilgan izoxlar va foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentlarning qanday qilib global miqyosda sayohat ma'lumotlarining eng muhim manbalariga aylangani tushuntiriladi. Ushbu qo'shma hisobot turizm sektorini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida Jahon banki guruhi va Tripadvisor tomonidan imzolangan memorandumning bir qismi bo'lib, mamlakatlar va xususiy sektor hamkorlari uchun ushbu sektorga ta'sir etuvchi asosiy raqamli tendensiyalarni tasvirlaydi.

Butunjahon turizm platformalari bugungi kunda "Turizm va raqamli transformasiya" mavzusini keng yoritmoqda. UNWTO hukumatlar va jahon hamjamiyatini "sayohat qilish uslubimizni o'zgartira oladigan, turizmning ekologik yukini kamaytiradigan va sayyohlikdan barchaga foyda keltiradigan raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga" chaqirmoqda.[10]

Raqamli texnologiyalar va platformalar rivojlanayotgan davlatlarga an'anaviy manzillarni boshqarish muammolarini yengib o'tishga va ularning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Ular, shuningdek, ayollar va qishloq tadbirkorlari uchun bozorga kirish va moliyaviy inklyuzivlik¹ni yaxshilash uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Biroq, ko'plab rivojlanayotgan yo'nalishlar raqamli platformalardan qanday foydalanish va xavflarni kamaytirish bo'yicha cheklangan bilimiga ega. Shu bilan bir qatorda nou-xau va resurslarning yetishmasligi tufayli bu davlatlar o'zlarining turizmini rivojlantirish uchun raqamli vositalardan foydalana olmaydilar. Sayyohlik raqamli platformalaridan to'liq foydalanish uchun hamkorlik, ayniqsa, hukumatlar va xalqaro tashkilotlar bilan biznesda hamkorliklar muhim ahamiyatga ega.[4]

O'zbekistonda raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish turistlardan talab qiladigan xarajatlar turli omillarga bog'liq bo'ladi. Ushbu xarajatlar turar joy, transport, oziq-ovqat, ekskursiyalar, sug'urta va boshqa qo'shimcha xizmatlarni o'z ichiga oladi. Quyida 2020-2024 yillar uchun taxminiy xarajatlar keltirilgan.

1-jadval

O'zbekistonda raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish xarajatlari²

Xarajatlar tarkibi	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Turar joy	30-50 AQSh dollari	40-70 AQSh dollari	50-80 AQSh dollari	60-90 AQSh dollari	70-100 AQSh dollari
Xalqaro reyslar uchun	200-300 AQSh dollari	250-350 AQSh dollari	300-400 AQSh dollari	350-450 AQSh dollari	400-500 AQSh dollari

¹ <https://www.mckinsey.com/featured-insights/mckinsey-explainers/what-is-financial-inclusion>

² Stat.uz. ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

oʻrtacha xarajat					
Ichki reyslar uchun	50-100	70-120	80-150	100-170	120-200
oʻrtacha xarajat	AQSh dollari	AQSh dollari	AQSh dollari	AQSh dollari	AQSh dollari
Oziq-ovqat va ichimliklar	10-20 AQSh dollari	15-25 AQSh dollari	20-30 AQSh dollari	25-35 AQSh dollari	30-40 AQSh dollari
Ekskursiyalar va	20-40 AQSh dollari	30-50 AQSh dollari	40-60 AQSh dollari	50-70 AQSh dollari	60-80 AQSh dollari
qoʻshimcha xizmatlar					
Umumiy	300-500	400-600	500-700	600-800	700-900
oʻrtacha xarajat	AQSh dollari	AQSh dollari	AQSh dollari	AQSh dollari	AQSh dollari

2020-2024 yillar davomida Oʻzbekistonda raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish xarajatlari pandemiya davridagi qisqarishdan soʻng asta-sekin oshdi. Bu davrda turizm sektori tiklandi va sayohat xarajatlari oʻsib bordi. 2024 yilga kelib, raqamli platformalar orqali sayohatni rejalashtirish oʻrtacha 700-900 AQSh dollari atrofida boʻlishi kutilmoqda, bu esa turizm xizmatlarining takomillashishi va turistlar uchun taqdim etilayotgan xizmatlarning diversifikatsiyasi bilan bogʻliq.

Raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish tizimini Oʻzbekiston va rivojlangan davlatlarda SWOT tahlili orqali koʻrib chiqish quyidagicha boʻlishi mumkin:

2-jadval

Oʻzbekistonda raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish tizimining

SWOT tahlili¹

SWOT tahlili

S - Kuchli tomonlar (Strengths):

Raqamli transformatsiya: Soʻnggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy qilish boʻyicha davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va rivojlanish bor.

Mahalliy turizm rivojlanishi: Oʻzbekistonning boy madaniy va tarixiy merosi, mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Turizm infratuzilmasi: Mamlakatda mehmonxonalar va sayohat xizmatlari infratuzilmasi rivojlanmoqda.

O - Imkoniyatlar (Opportunities):

Turizm sektori uchun yangi bozorlarga chiqish: Raqamli platformalar orqali xalqaro bozorlarga chiqish va turizmni kengaytirish imkoniyati.

Raqamli xizmatlar kengayishi: Innovatsion texnologiyalarni qoʻllash orqali turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish imkoniyati.

Davlat qoʻllab-quvvatlovi: Davlat tomonidan turizmni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va subsidiya siyosatlari.

W - Zaif tomonlar (Weaknesses):

Raqamli savodxonlik darajasi: Aholining raqamli texnologiyalar bilan tanish boʻlmagan qismi yuqori darajada.

Texnologik infrastrukturadagi kamchiliklar: Internet tezligi va qamrov darajasi baʼzi joylarda yetarli emas.

Oʻtish jarayonidagi qiyinchiliklar: Anʼanaviy sayohat rejalashtirish usullaridan raqamli platformalarga oʻtishda qiyinchiliklar boʻlishi mumkin.

T - Tahdidlar (Threats):

Raqamli xavfsizlik muammolari: Kiberxavfsizlik va maxfiylikka tahdidlar.

Global raqobat: Xalqaro raqamli platformalar bilan raqobatlashish qiyin boʻlishi mumkin.

Iqtisodiy noaniqlik: Milliy valyutadagi oʻzgarishlar va iqtisodiy beqarorlik turizm sektoriga salbiy taʼsir qilishi mumkin.

¹ <https://www.advantour.com/uzbekistan/> maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

O'zbekistonda raqamli platformalar orqali sayohatlarni rejalashtirish tizimi katta salohiyatga ega bo'lib, uning kuchli tomonlari va imkoniyatlari raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini beradi. Biroq, zaif tomonlar va tahdidlar bilan ishlash, ular yuzasidan strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va xalqaro tajribalardan foydalanish orqali O'zbekistonda turizm sohasidagi raqamli platformalarni yanada rivojlantirish mumkin. Bu esa mamlakatning turizm industriyasini xalqaro miqyosda yanada rivojlantirishga yordam beradi.

3-jadval

Rivojlangan davlatlarda raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish tizimi SWOT tahlili¹

SWOT tahlili

S - Kuchli tomonlar (Strengths):

Rivojlangan raqamli infratuzilma: Tezkor internet, keng qamrovli raqamli xizmatlar va texnologik infratuzilma yuqori darajada rivojlangan.

Keng ko'lamli foydalanuvchi tajribasi: Foydalanuvchilar raqamli platformalardan foydalanishda yuqori tajribaga ega.

Innovatsion platformalar: Zamonaviy va innovatsion raqamli platformalar orqali sayohat xizmatlari samaradorligi oshirilgan.

O - Imkoniyatlar (Opportunities):

Texnologik innovatsiyalar: Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va blokcheyn kabi texnologiyalarni qo'llash orqali sayohat xizmatlarini yanada takomillashtirish.

Global yetakchilik: Rivojlangan davlatlar global turizm platformalarida yetakchi bo'lish imkoniyatiga ega.

Barqaror turizm: Ekologik barqarorlikka qaratilgan raqamli platformalar orqali sayohatlarni rejalashtirish.

W - Zaif tomonlar (Weaknesses):

Yuqori raqobat: Raqamli sayohat platformalari bozorida katta raqobat mavjud, bu yangi ishtirokchilar uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

Xizmatlarning yuqori narxlari: Rivojlangan davlatlarda raqamli xizmatlar va sayohat rejalashtirishning narxlari yuqori bo'lishi mumkin.

Raqamli qaramlik: Texnologiyaga qaramlik natijasida insoniy aloqalar va an'anaviy turizm xizmatlari kamayib ketishi mumkin.

T - Tahdidlar (Threats):

Texnologik xatolar: Raqamli platformalar tizimidagi texnik xatoliklar sayohatchilar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar: Kiberxavfsizlikka tahdidlar va maxfiylik masalalari muhim muammo bo'lib qolishi mumkin.

Iqtisodiy o'zgarishlar: Global iqtisodiy o'zgarishlar sayohatga bo'lgan talabga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Rivojlangan davlatlarda raqamli platformalar orqali sayohatlarni rejalashtirish tizimi juda rivojlangan va qulay imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ba'zi zaif tomonlar va tahdidlar ham mavjud. Platformalarni foydalanuvchi uchun yanada qulayroq qilish va xavfsizlik masalalarini hal etish orqali ushbu tizimni yanada rivojlantirish mumkin. Shuningdek, yangi texnologiyalardan foydalanish orqali bu sohada innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, tahdidlarni bartaraf etish uchun qat'iy chora-tadbirlar ko'rish zarur. Ushbu SWOT tahlili O'zbekiston va rivojlangan davlatlar uchun raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish tizimining afzalliklari, kamchiliklari, imkoniyatlari va xavf-xatarlarini ko'rsatib beradi.

Raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish tizimi samarali va qulay bo'lishi uchun bir qator asosiy tamoyillarga amal qilish kerak. Ushbu maqolada ushbu tamoyillar keltirilgan:[5]

1. Foydalanuvchi tajribasi (UX) va interfeys dizayni (UI). Qulaylik va intuitiv interfeys. Foydalanuvchilarning sayohatlarni rejalashtirish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun platforma interfeysi intuitiv, oson tushunarli va qulay bo'lishi kerak. Moslashuvchan

¹ <https://www.reportlinker.com/market-report/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

dizayn. Platformaning dizayni turli qurilmalarda (kompyuter, planshet, smartfon) bir xil darajada qulay ishlashi va moslashishi zarur.

2. Shaxsiylashtirish va moslashuvchanlik. Shaxsiylashtirilgan takliflar. Foydalanuvchilarning sayohat odatlariga, qidiruv tarixiga va ma'lumotlariga asoslangan holda shaxsiylashtirilgan sayohat takliflarini yaratish kerak. Moslashuvchan rejalashtirish. Foydalanuvchilar sayohat rejasini o'zlariga mos ravishda moslashtirishlari uchun turli xil variantlarni taqdim etish lozim.(masalan, transport turlari, turar joy turlari, sayohat sanalari).

3. Integratsiya va ma'lumot almashinuvi. Ko'p xizmatlar bilan integratsiya. Raqamli platforma turli xizmatlar (aviakompaniyalar, mehmonxonalar, transport xizmatlari, ekskursiyalar) bilan integratsiyalangan bo'lishi kerak, bu esa foydalanuvchilarga barcha kerakli xizmatlarni bir joyda rejalashtirish imkonini beradi. Real vaqt rejimida ma'lumotlar: Sayohat tafsilotlari (masalan, reyslar, mehmonxona mavjudligi, narxlar) real vaqt rejimida yangilanib turishi kerak.

4. Xavfsizlik va maxfiylik. Ma'lumotlar xavfsizligi. Foydalanuvchilar tomonidan kiritilgan shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlar xavfsizligi ta'minlanishi kerak. Platformada ma'lumotlarni himoya qilish uchun shifrlash va boshqa xavfsizlik choralaridan foydalanish zarur. Maxfiylik siyosati. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiyligini saqlash va faqat kerakli maqsadlar uchun foydalanishni ta'minlash lozim.

5. Narxlar va to'lovlar shaffofligi. Narxlar shaffofligi. Barcha xizmatlarning narxlari shaffof ko'rsatilishi va yashirin to'lovlar yoki komissiyalar haqida oldindan ogohlantirilishi kerak. Ko'p turdagi to'lov imkoniyatlari. Foydalanuvchilarga turli to'lov usullarini tanlash imkonini berish, shu jumladan xalqaro to'lovlar va mobil to'lov tizimlari orqali to'lash.

6. Qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari. 24/7 qo'llab-quvvatlash. Foydalanuvchilarga har qanday vaqtda yordam berishga tayyor bo'lgan texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim etish kerak. Onlayn yordam va maslahatlar. Sayohatlarni rejalashtirishda foydalanuvchilarga maslahat beruvchi botlar yoki onlayn konsultantlarni taqdim etish orqali yordam ko'rsatish lozim deb o'ylayman.

7. Foydalanuvchi baholashlari va sharhlari. Ochiq sharhlar tizimi. Foydalanuvchilar o'zlarining tajribalarini baholashlari va sharh qoldirishlari uchun platforma ochiq bo'lishi kerak. Bu yangi foydalanuvchilarga xizmatlar haqida ma'lumot olishda yordam beradi. Baholashlarni tahlil qilish. Foydalanuvchi baholashlari va sharhlarini tahlil qilish orqali xizmatlarni yaxshilash va platformani takomillashtirish mumkin.

8. Ko'p tillilik va xalqaro moslashuvchanlik. Ko'p tillilik. Platforma bir nechta tillarda mavjud bo'lishi kerak, bu xalqaro foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratadi. Valyuta konvertatsiyasi. Foydalanuvchilarga o'zlari uchun qulay bo'lgan valyutada narxlarni ko'rish va to'lovlarni amalga oshirish imkonini taqdim etish kerak.

Raqamli platformalar vositasida sayohatlarni rejalashtirish tizimining samaradorligi va foydalanuvchilar uchun qulayligi yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarga bog'liq. Ushbu tamoyillarga amal qilish platformaning raqobatbardoshligini oshiradi, foydalanuvchilarga qulay va xavfsiz xizmatlarni taqdim etadi va sayohatlarni rejalashtirish jarayonini soddalashtiradi.[6]

Xulosa va takliflar

Raqamlashtirish biznes modellari va amaliyotlarini o'zgartirish hamda ekotizimlarni qadrlash uchun raqamli texnologiyalar va ma'lumotlardan foydalanadi. Masalan, iqtisodiyot oxirgi 10 yil ichida yashirin yoki foydalanilmagan aktivlardan yangi qiymat yaratish uchun yangi platforma texnologiyalari va biznes modeli innovatsiyasi natijasida rivojlandi. 2019-yilda sayohatni raqamli rejalashtirish sektorining qiymati (onlayn bron xizmatlari) 61 milliard dollarga baholangan bo'lsa, kelajakda ushbu qiymat qariyb 335 milliard dollarga yetadi. Biroq, raqamli transformasiya o'zgaruvchan bo'lib, turli texnologiyalarni o'zlashtirish, turli sektorlar, mamlakatlar va tashkilotlarda to'siqlar va imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'zgaruvchandir.

Yevropa Komissiyasi tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlar Yevropa bo'ylab turizm raqamli texnologiyalarni qo'llashda sezilarli farqlarni aniqladi. Masalan, shimoliy mamlakatlarda raqamli texnologiyalar sharqiy va janubiy Yevropaga qaraganda yuqoriroq o'zlashtirilgan. Xuddi shu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, turizm elektron marketing va elektron

tijorat keng miqyosda qabul qilingan bo'lsa-da, ma'lumotlar tahlili, bulutli hisoblash kabi ilg'or texnologiyalar faqat cheklangan miqdorda qabul qilindi. Iste'molchilar sayohat manzilini qidirish, rejalashtirish va bron qilish uchun raqamli texnologiyalardan tobora ko'proq foydalanayotganligi sababli, sayyohlik korxonalari uchun raqamli texnologiyalarni o'z ichiga olish va ilg'or imkoniyatlardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.[7]

Xulosa qilib aytganda, avtomatlashtirish va robototexnika turizmdagi asosiy tendensiya bo'lib, turizm bizneslari uchun onlayn dasturlar ishlab chiqilgan. Misol uchun, bir vaqtlar kishilar tomonidan bajarilgan ko'plab vazifalar endi robotlar yoki chatbotlar kabi avtomatlashtirilgan tizimlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular sanoatda keng qo'llanila boshlandi va kishilarga bir qator savollar berish orqali sayohatlar, transport va turar joyini topish va bron qilishda yordam berish uchun mo'ljallangan. Murakkabroq misollar orasida ba'zi mehmonxonalar tomonidan qabulxonani boshqarish yoki hatto oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash uchun foydalaniladigan robot "xodimlari"ni misol keltirish mumkin. Robotlarda mahsulot va xizmatlarni taqdim etish qobiliyatida rivojlangan bo'lsa-da, sanoat, hukumat va iste'molchilar ularni iqtisodiyotga qanday integratsiya qilishni to'liq tadbiq etmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli — e-journal.uz, 2/2022 – M.H.Axmedova
2. O.Xamidov, New stage of tourism development in Uzbekistan: actual problems and perspectives, Przegledy i Wydziały Naukowe Darwin/Scientific Publishing House DARWIN, 134-149 str, 2017,
3. Жураев А.Т. Развитие исторического и культурного туризма в Узбекистане // Научное сообщество студентов XXI столетия. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ: сб. ст. по мат. XXXI междунар. студ. науч.-практ. конф. № 4(31). URL: [http://sibac.info/archive/economy/4\(31\).pdf](http://sibac.info/archive/economy/4(31).pdf),
4. Д.Явмутов, О.Рахимов Pilgrimage tourism and its prospects in Uzbekistan YD Shoimardonkulovich, RO Hamidovich - Economics, 2021, Priorities for improving the quality of hotel services through innovative development, I.Davronov, Z.Nurov, K.Yuldashev, O.Radjabov - Центр научных публикаций (buxdu. uz), 2021
5. Navruz-Zoda B., Ibragimov N. Ways of Applying Destination Management Concepts to the Development of Internal Tourism in Uzbekistan //International Tourism and Hospitality in the Digital Age. – IGI Global, 2015. – С. 172-190.
6. Navruz-Zoda B. N., Ibragimov N., Rakhmanov A. Perspectives on the improvement of Uzbekistan as a destination for multi-confessional self-organised pilgrims //International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. – 2019. – Т. 7. – №. 4. – С. 11.
7. Navruz-Zoda B., Navruz-Zoda Z. The destination marketing development of religious tourism in Uzbekistan //International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. – 2016. – Т. 4. – №. 7. – С. 3.
8. Navruz-Zoda B., Navruz-zoda Z. The destination marketing development of religious tourism in Uzbekistan: a case study //Religious tourism in Asia: tradition and change through case studies and narratives. – Wallingford UK : CAB International, 2018. – С. 149-157.
9. Ibragimov N., Xurramov O. Types of competition in destination marketing and 6A model of competitiveness. – 2015.
10. Khidirova G. The importance of the region's socio-economic potential of the tourism market //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2018. – Т. 7. – №. 11. – С. 160-168.
11. Rustamovna K. G., Tulkinovna R. M. FOREIGN EXPERIENCE OF EFFECTIVE USE OF TOURISM EXPERTISE IN REGIONS.
12. Khidirova G. The world experience of providing economical development in the region //International Finance and Accounting. – 2018. – Т. 2018. – №. 5. – С. 11.

13. Koroleva, N., Achaeva, M., Pospelova, N., & Khidirova, G. (2023). World development of vocational training of social workers and system of social work and training at the regional level in Tatarstan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 07003). EDP Sciences.

14. Хидирова Г. DOMESTIC TOURISM AS AN IMPORTANT FACTOR IN INCREASING HUMAN SPIRITUALITY //" Экономика и туризм" международный научно-инновационный журнал. – 2022. – Т. 2. – №. 4.

15. Хидирова Г. Особенности формирования внутреннего туризма в регионе //Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики. – 2022. – Т. 1. – №. 01. – С. 226-236.

16. Rixsimbayev, O., Gazieva, S., Toshmurodova, M., Khidirova, G., & Rustamov, N. (2022, December). Strengthen Digitalization Technologies on Regulation of Labor Migrant Workers Abroad. In *Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems* (pp. 504-510).

17. Г.Р. Хидирова Бухоро вилоятида инновацион технологиялар асосида туризм салоҳиятидан фойдаланишнинг асосий йўналишлари X Форум Экономистов, Механизмы и пути формирования инновационной экономики в свете реализации Стратегии действий по приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах Т.: - 2018, Б.360-366